

Gulshanoy
SAFAROVA

ORZU MANZILLARI



Gulshanoy SAFAROVA

ORZU MANZILLARI

She'rlar

Toshkent
«Yangi kitob»
2016

UO'K: 821.512.133-1

KBK: 84(50')7

S 34

Safarova, Gulshanoy.

Orzu manzillari [Matn]: she'rlar / G.Safarova. – Toshkent: «Yangi kitob», 2016. – 48 b.

ISBN 978-9943-4555-8-0

UO'K: 821.512.133-1

KBK: 84(50')7

Qo'lingizdagi to'plamga xorazmlik iste'dodli yosh shoira Gulshanoy Safarovaning Vatanga sadoqat, do'stlik, birodarlik, o'zaro oqibat, mehr-muhabbat mavzularidagi sara she'rlari jamlab olindi. To'plam mashqlari – vaqtli matbuotda muntazam e'lon qilinib kelayotgan muallifning kitobxonlar bilan ilk uchrashuvi. Ishonchimiz komilki, bu uchrashuv xayrli kechadi. Zero, Gulshanoyning she'rlari mag'zi to'qligi, beg'ubor samimiyati, ilhom va hayajon og'ushida qog'ozga tushirilgani bilan ajralib turadi.

Taqrizchi:

Abduqayum Yo'ldoshev,

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

ISBN 978-9943-4555-8-0

© Gulshanoy Safarova

«Orzu manzillari».

© «Yangi kitob», 2016.

VATAN

Vatan boshlanadi ostonalardan,
Vatan yuraklardan boshlanar asli.
Ozod-obod yurtim, go'zal bir chaman,
Yilining to'rt fasli – yuksalish fasli.

Tavof etib, ko'zga surtsang arziydi
Yantoqni gullatgan qumloqlarini.
Hattoki behishtda topib bo'lmaydi
Tog', adir, dala-yu o'tloqlarini.

Men nechun tuprog'in quchib suymayin,
Taftida shodlanib urar yuragim.
Iftixor yuksalar qalbda tinmayin:
Shu muqaddas yurtga bordir keragim.

Vatan sarhadida bitta g'unchaman,
Yuragim g'ururdan ketadi jo'shib.
Bir lahzam so'rasa Vatanim mendan,
Jonimni beraman men unga qo'shib...

VATAN DESAM...

Vatan desam jism-u jonda yoniq tuyg'u,
Qanot boylab, samolarga ketgum uchib.
O'zbekiston, bu dunyoda bittasan-ku,
Men yashayman har giyohing mahkam quchib.

Bobolarim hikmatlarin so'zlab turar,
Tarixlardan meros yuksak minorlaring.
Menga o'tmish-kelajakdan saboq berar
Samolarga ustun bo'lgan chinorlaring.

Bahoringni kelinchak deb suyadirman,
Yozing kelsa mevalaring elga tortiq.
Kuz kelganda ajib hislar tuyadirman,
Kumush qishing sevadirman chandon ortiq.

Vatan, senda tug' ilmoqlik o'zi iqbol,
Saodatdir shu Vatanda yashamoqlik.
Faqat goho o'z-o'zimga bergum savol:
Bizlar farzand bo'loldikmi senga loyiq?..

ENG OLIY MAQSADIM – VATAN IQBOLI

Mening orzularim bisyordir hali,
Ularning safida eng yorug' mayoq:
Eng oliy maqsadim – Vatan iqboli,
Mana shu Vatanga xizmatda bo'lmoq.

Men bir sado bo'lib keldim olamga,
Hurlik zamonida oddiy qalamkash.
Maqsadim xizmatda bo'lish Vatanga,
Orzuyim yurtimning koriga yarash.

Men bir orzu bo'lib kelganman asli,
Navolar sadosi bo'lib yangrayman.
Berilgan imkon-u e'tibor haqqi,
Yurtim xizmatiga doim yarayman.

Ko'ksimda yuragim uradi tinmay,
Baxtli farzandiman hur zamonaning.
Yurtim, bayrog'ingni baland ko'taray
Duolari haqqi mushfiq onamning.

Men bir misra bo'lib keldim olamga,
She'riyatdir mudom dilim quvonchi.
Barcha yutuqlarda sababkor menga –
Ota-onam hamda yurtim ishonchi.

YURTIM

Yuksak minoralari moziylardan so'zlaydi,
Chinorlari nuroniy, asrlarga bo'ylaydi,
Yurtimning farzandlari ertasini o'ylaydi,
O'tmish-buguni shonli, o'zing o'tli suronim.
Koinot yanglig' ko'hna, azim mangu Turonim.

Har kun sabab topilar bayram-u tantanaga,
Shodliklar muhrlanar o'tayotgan har sanaga,
Barokat urug'lari sepiladi dalaga,
Har qadamda bog'lari, jannatmonand jahonim.
Ko'ksi jambil iforli yurtimsan, onajonim!

ZULFIYAXONIM

Sizning hayotingiz bizlarga ibrat...
Nazm chamanida ijod mahali
Isbotini topdi siz aytgan hikmat:
"Bu bog'lar – bir bog'lar bo'ladi hali!"

Tarannum etdingiz hayot kuyini,
Xayollarni belab nur-belanchakka.
Sadoqat maktabin chin malikasi,
Namuna bo'ldingiz siz kelajakka.

Jahon minbarida yangragan ovoz,
Nazm bog'idagi so'lmas chinorsiz.
Bu bo'stonda sizga o'zgacha e'zoz,
Har bir havaskor qiz ko'nglida borsiz.

Vafo, ibo, hayo – tutash umrga,
Nazmingizdan dilga ziyo taralgan.
Men bir haqiqatni aytgum baralla:
Sadoqat aslida sizdan yaralgan.

Siz hamon hayotsiz, ijod ila band,
Nazm bog'ida hech o'chmas izingiz.
Nurli suratingiz ko'ksini bezab,
Sizga ta'zim etar qancha qizingiz!

HAZORASP

Xorazmning bir bo'lagi tumanimiz,
Har bitta tong otar bunda baxtni ko'zlab.
Nelar o'tgan bu zaminning tuprog'ida,
Dev qal'asi barisidan turar so'zlab.

Baland, sirli qal'alarning devorlari
Uch ming yillik, balki hatto undan ko'proq.
Samolarga uchgan bu joy tulporlari,
Bu makonda aziz erur har kaft tuproq.

O'tmishidan so'ylaymi yo bugunidan,
Uyg'oq o'tmish tarixining allasida.
G'oyat go'zal obidalar tiklanmoqda,
Tumanimiz rivojlanish pallasida.

Qovunlari tilni yorar shirinlikdan,
Insonlari ibrat bo'lib qanoatda.
Avtomobil zavodi ham xizmatdadir,
O'z o'rnini topib bugun sanoatda.

Xorazmning bir bo'lagi tumanimiz,
Har bitta tong otar bunda baxtni ko'zlab...

QISHLOG'IM

Tuprog'ing qadri, suvlaring zilol,
Yantog'ing guldan ham afzal begumon.
Bir umr bag'ringda meni olib qol,
Bir umr bag'ringda yashayin shodon.
Tug'ilgan maskanim, o'sgan toshlog'im,
Eng go'zal shahardan afzal qishlog'im.

SHUKRONA

Har tongda tabiat ko'zingga ziyo,
Qalbingga esa nur qo'yadi berib.
Taftish etgil o'tgan kuning har tunda,
Ololdingmi ezgu savobin terib.

Dard kelsa sinovdir aziz boshingga,
Zorlanib, shikoyat etmagil aslo.
Berganin baxt bilib, aytgil shukrona,
Qalbingda rizolik bo'lsin doimo.

Vaqt malham suradi jarohatingga,
Hayot qamchisidan yesang-da darra.
Kimdir yordam so'rab eshiging qoqsa,
Ko'mak bermoqliging lozim albatta.

Taqdiringdan nolib qilmagin xato,
Baxtingni his etmay aytma shikoyat.
Tabiat zulmatni etgan so'ng ato
Yorug'likning qadri bilinar albat.



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi
<https://kitobxon.com/uz/asar/1512> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси
<https://kitobxon.com/uz/asar/1512> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию
можно найти на сайте
<https://kitobxon.com/ru/asar/1512>